

## LUG‘ATCHILIK SOHASIDAGI YUTUQLAR

**Sog‘inboyeva Shahzoda**

Namangan davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan o‘zbek tilshunosligida yuz bergan tub o‘zgarishlar va yangilanishlar yoritilgan. Unda o‘zbek tilining xalqaro nufuzining oshishi, yangi ilmiy yo‘nalishlar — struktur, funksional, kognitiv va pragmalingsvistika kabi oqimlarning shakllanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqillik yillarida o‘zbek tilining izohli, terminologik va tarjima lug‘atlari yaratilib, lug‘atchilik sohasida erishilgan yutuqlar keng yoritilgan. Ayniqsa, besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nashri o‘zbek tili tarixida ulkan hodisa sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek tilshunosligi, mustaqillik, izohli lug‘at, kognitiv lingvistika, pragmalingsvistika, struktur tahlil, til siyosati, lug‘atchilik, leksikologiya.

## ADVANCES IN UZBEK LEXICOGRAPHY

**Sog‘inboyeva Shahzoda**

student of Namangan state university

**Annotatsiya:** This article discusses the fundamental changes and developments in Uzbek linguistics following the independence of the Republic of Uzbekistan. It highlights the growing international prestige of the Uzbek language and the emergence of new linguistic approaches such as structural, functional, cognitive, and pragmatic linguistics. The paper also focuses on achievements in lexicography, particularly the compilation of explanatory, terminological, and bilingual dictionaries during the independence period. The five-volume Explanatory Dictionary of the Uzbek Language is evaluated as a milestone in the history of Uzbek linguistics.

**Keywords:** Uzbek linguistics, independence, explanatory dictionary, cognitive linguistics, pragmalinguistics, structural analysis, language policy, lexicography, lexicology.

Respublikamizning suveren davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zolikka qabul qilinishi, 150 dan ortiq mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi natijasida bu diyorning muqaddas timsoli bo‘lgan milliy tilimizning ham dunyo bo‘ylab obro‘-e‘tiborining oshishiga, unga jahon xalqlarini diqqati qaratilishiga zamin yaratildi. Ana shunday jarayonda mamlakatimizning davlat tili bo‘lgan o‘zbek tilining ichki tuzilishi, tarixiy taraqqiyot jarayonini o‘rgatuvchi tilshunoslik fani ham tez sur‘atlar bilan rivojlandi. Eng avvalo, sho‘rolar davrida hukmron bo‘lgan rus tilshunosligi andozalari asosida boshqa sistemadagi tillarni o‘rganish an‘anasidan voz



kechildi. Hind-yevropa tillari materiallari asosida maydonga kelgan tadqiq metodlarini boshqa tillarga qo'llash mutlaqo mumkin emasligini Amerika hindu qabilalari tilini o'rganishga bel bog'lagan Boas ham bundan yuz yillar oldin ta'kidlagan edi<sup>1</sup>. yagona fan metodologiyasiga aylangan marksistik ta'limot zanjiridan qutulish va olamni ilmiy bilishda qo'l keladigan dunyoning eng yaxshi falsafiy ta'limotlaridan erkin foydalanish imkoniyati maydonga keldi. Sho'rolar tomonidan «burjua fani», «marksistik metodologiyaga yot ta'limot» hisoblangan<sup>2</sup> sistemaviy-struktur tilshunoslik va uning tekshirish metodlari mustaqillik sharofati bilan keng kirib kela boshladi.

Istiqlolga erishgunga qadar o'zbek tilshunoslari asosan o'zbek tilining ichki tuzilishini tavsifiy asosda o'rganish bilan cheklangan bo'lsalar, mustaqillik sharoitida ular o'zbek tili materiallari negizida umumiy tilshunoslik muammolarini hal qilish, tilshunoslik nazariyasi va lingvistik ta'limot tarixi masalalarini yoritish darajasiga ko'tarildilar. Bu davr mobaynida A.A.Abduazizov, R.Rasulov, N.Turniyozov, Sh.Iskandarova (A.Nurmonov bilan hamkorlikda) va boshqa olimlarning tilshunoslik nazariyasiga bag'ishlangan kitoblari, shuningdek, «O'zbek tilshunosligi tarixi» nomli asarlar maydonga keldi. Faqat istiqlol tufayligina o'zbek tilshunosligi o'zining uzoq tarixiga ega ekanligi, o'zbek tilshunoslarining Yevropaning eng dongdor tilshunoshlaridan ancha oldin qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, kontrastiv lingvistika, ideografik lug'atlar yaratish kabi qator yo'nalishlarga asos solganligi, hozirgi kunda leksemalar mazmuniy mundarijasini uzviy (komponent) tahlil asosida yoritish an'anaga aylangan bir paytda, bu usul XV asrlardayoq o'zbek tilshunoslari tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanganini yoritish va ilmiy jamoatchilikka yetkazish imkoniyati paydo bo'ldi. Eng muhimi, istiqlol davrida o'zbek tilshunosligida metodologik yakka hokimlikdan metodologik plyuralizmga o'tildi. Buning natijasida bir obyektga turli tomondan yondashuvlar maydonga keldi. An'anaviy, struktur-semantik (formal-semantik), formal-funksional singari yo'nalishlar erkin faoliyat ko'rsata boshladi. Shuning uchun bu yo'nalishlar o'rtasida bahs-munozaralar kuchaydi. SH.Rahmatullaev, A.Hojiyev, N.Mahmudov, H.Ne'matov singari olimlar bu bahs-munozaralarning faol ishtirokchisiga aylandilar<sup>3</sup>. Buning natijasida tilshunoslikning nazariy masalalariga tadqiqotchilar diqqat-e'tibori ko'proq jalb qilina boshladi. Mustaqillik sharoitida o'zbek tilshunoslarining diqqat-e'tibori struktur tilshunoslik bilan birga antropolingvistika yo'nalishlariga qaratilganligi tahsinga loyiqdir. M.Mirtojiyev, N.Mahmudov singari olimlar lingvistik semantika bo'yicha, M. Hakimov, Sh. Safarovlar pragmalingvistika va kognitiv lingvistika bo'yicha qiziqarli

<sup>1</sup> Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдиэлари ва йўналишлари. -Тошкент, 2009. - Б. 107.

<sup>2</sup> Ахманова О. С. Глоссематика Л. Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкознания. // Вопросы языкознания, 1953. №5.

<sup>3</sup> Рахматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.



tadqiqotlar olib bordilar. <sup>4</sup>Ayniqsa, SH. Safarovning «Kognitiv lingvistika» va «Pragmalingvistika» nomli asarlarining nashr qilinishi o'zbek tilshunosligining katta yutug'i bo'ldi<sup>5</sup>.

Bundan tashqari, o'zbek tilining turli sathlarini Shu tilning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadqiq etishga alohida ahamiyat berildi. H.Jamolxonovning «O'zbek tilining nazariy fonetikasi» (Toshkent, 2009), Azim Hojiyev, I.Tojiyev, T.Mirzaqulovlarning morfemika va so'z yasallishiga bag'ishlangan asarlari, E. Begmatov, M. Mirtojiyev, H. Ne'matov, R. Rasulov, H. Shamsiddinov, H. Dadaboyev, SH. Iskandarova, A. Sobirovlarning leksikologiyaga, A.Hojiyev, Sh.Shahobiddinova, J.Eltazarovlarning morfologiyaga, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, D.Lutfullayevalarning sintaksisga bag'ishlangan asarlari o'zbek tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqdi. Mustaqillik yillarida o'zbek tili leksikologiyasi, ayniqsa, leksikografiyasi sohasida ham muhim yutuqlarga erishildi. Xususan, lug'atchilik sohasidagi nazariy va amaliy izlanishlar diqqatga sazovordir. Besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati», kichik va o'rta hajmli bir necha o'nlab ikki tilli tarjima lug'atlarining, yuzdan ortiq bir, ikki yoki ko'p tilli terminologik lug'atlarning ayni mustaqillik yillarida yaratilganligi lug'atchilik sohasiga alohida e'tibor qaratilayotganligidan, shu sohaga qiziqish ortib borayotganligidan darak beradi.<sup>6</sup>

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi bilan til siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berib, o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifalari doirasining mislsiz kengayishiga katta imkoniyatlar ochildi. Ayniqsa, o'zbek tilining ilmiy til, rasmiy uslub tili, pochta, telegraf, bank-moliya sohalari tili, ijtimoiy-siyosiy va diplomatik sohalar tili sifatidagi kommunikativ vazifasi keng rivoj topdi. Respublikamiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan ulkan yangiliklar, rivojlangan juda ko'plab mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning kuchayib borishi qisqa vaqt ichida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi tarkibining boyishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Zikr etilgan omillar ta'sirida o'zbek tili lug'at tarkibida yuz bergan jiddiy o'zgarishlar munosabati bilan hozirgi davr talablariga javob bera oladigan izohli lug'at yaratish zaruratidan kelib chiqib, Respublika hukumatining maxsus qarori bilan o'zbek tilining yangi, ko'p jildli izohli lug'atini tuzish va chop etish masalasi O'zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi qonunini amalga oshirish Davlat dasturiga kiritildi va uni amalga oshirish O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti zimmasiga yuklandi. Institutning yetakchi olimlaridan tashkil topgan ijodiy guruh 1998-yildan yangi izohli lug'at ustida ish boshlab, uni 2006- yilda yakunladi; 300 bosma taboqdan ortiq hajmdagi besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati», 2006-2008-

<sup>4</sup> Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаллишининг назарий масалалари. -Тошкент, 2010  
ва бошқалар

<sup>5</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008;

<sup>6</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.

yillarda «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti tomonidan to‘lig‘icha nashr etildi. Ushbu lug‘at o‘zbek va jahon lug‘atchiligining boy tajribalarini, yangi, ijobiy yutuqlarini, O‘zbekiston mustaqilligi yillarida jamiyatimiz, xalqimiz hayotida ro‘y bergan tub o‘zgarishlar va shu munosabat bilan o‘zbek tili leksikasida sodir bo‘lgan yangiliklarni e‘tiborga olgan holda yaratilgan lug‘atdir. Besh jildli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» o‘zbek xalqi ijtimoiy-madaniy hayotida, o‘zbek tili va tilshunosligi tarixida ulkan hodisa hisoblanadi. Ushbu lug‘at, avvalo, Respublikamizda mustaqillik yillarida olib borilayotgan til siyosatining, eng asosiysi, hurmatli Prezidentimiz, u rahbarlik qilayotgan Respublika hukumatining ziyolilarga, filologiya sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan olimlarga muttasil gamxo‘rligining ijobiy samarasi sifatida yuzaga chiqdi. Lug‘atning ilmiy qimmati shundaki, u hozirgi o‘zbek adabiy tili so‘z boyligini o‘zida mujassam qilgan, o‘zbek tilining dunyodagi eng rivojlangan tillardan biri ekanini namoyish qiluvchi va bu holatni konkret dalillar asosida tasdiqlovchi muhim manbadir. Ushbu izohli lug‘atning nazariy asosi va ilmiy tamoyillari, so‘z ma’nolarini talqin qilish usullari o‘zbek tilining ikki tilli tarjima, terminologik va boshqa xil lug‘atlarini tuzishga barakali ta’sir ko‘rsatdi. Yangi izohli lug‘at ulkan amaliy, madaniy-ma’rifiy qimmatga ega. Unga o‘z ona tiliga mehr-muhabbati bo‘lgan, ona tilining, undagi so‘zlarning sir-asrorlari, imloviy va uslubiy xususiyatlari bilan qiziqqan har qanday o‘zbek ziyolisi, o‘zbek tilini o‘rganish ishtiyoqida bo‘lgan har qanday o‘zga til vakili murojaat qilishi mumkin. Shuningdek, bu lug‘at ta’lim tizimida, nashriyot va matbuot sohasida, adabiyot, san’at va ilm-fan sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir kishining doimiy hamrohi bo‘lib qolganiga, har bir o‘zbek ziyolisining kitob javonidan o‘rin olganiga ishonchimiz komil. Shuning uchun ham bu lug‘at matbuot sahifalarida bugungi o‘zbek tili leksikasining oynasi sifatida baholandi va so‘zlar izohi o‘zbek leksikologiyasi va leksikografiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslanganligi bilan ilmiy jamoatchilikning tahsiniga sazovor bo‘ldi. Besh jildli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» chop etilganidan keyin O‘zbekistonda lug‘atchilik, shu jumladan ikki tilli lug‘atlar tuzish sohasida amalga oshiriladigan barcha muhim va yirik ishlar, tashabbuslar milliy tilning katta izohli lug‘ati bilan, V.G.Gakning ta’biri bilan aytganda, «lug‘atning eng muhim, asosiy turi» bilan bog‘liq bo‘ladi. Chunki yangi izohli lug‘at hozirgi o‘zbek tilida nisbatan keng iste’molda bo‘lgan bir necha o‘n minglab so‘z va so‘z birikmalarini, jumladan, fan, texnika, san’at va madaniyat sohalariga oid terminlarni, bir necha shevalarda qo‘llanadigan so‘zlarni, ba’zi tarixiy va eskirgan atamalarni qamrab olgan va ko‘plab leksikologik tadqiqotlarga, yangidan yangi tarjima lug‘atlariga manba bo‘lib xizmat qiladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Тошкент, 2009. - Б. 107.
2. Ахманова О. С. Глоссематика Л. Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкознания. // Вопросы языкознания, 1953. №5.
3. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент, 2010 ва бошқалар
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008;
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.
7. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -- Тошкент, 2007. - Б. 87.
8. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008.
10. Усмонова Ш. Психоллингвистика (ўқув-услубий мажмуа). - Тошкент, 2011.
11. Убайдуллаев А. Ҳиндистонда яратилган туркий луғат // Til va adabiyot ta'limi, № 3 2010.
12. Ғаниева С. Техрон китобхоналаридаги Навоий асарларининг қўлёзмалари // ЎТА, №4,1991.